



**XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT  
KENGASHIGA SAYLOV O'TKAZUVCHI VILOYAT  
SAYLOV KOMISSIYASI  
QARORI**

2022\_yil 11 aprel

51 -sonli

Qarshi shahri

**Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining bo'shab qolgan  
o'rinlariga deputat saylovini o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 93-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi V1-44-70-4-0-K/22 sonli qaroriga asosan Xalq deputatlari viloyat kengashining 24-Denov, 51-Namaton va 53-Qutchi saylov okruglarida bo'shab qolgan o'rinlarga deputat saylovini o'tkazish **2022-yil 15-may** kuniga belgilansin.

2. 24-Denov, 51-Namaton va 53-Qutchi saylov okruglarida bo'shab qolgan o'rinlarga deputat saylovi mazkur saylov okruglari hududida yangi tashkil etiladigan saylov uchastkalarida O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi talablariga muvofiq o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

3. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashi deputati saylovi bo'yicha ovoz berish uchun saylov byulletinlarini nashr etish, joylarga yetkazib berish bilan bog'liq ishlar viloyat saylov komissiyasining 2019-yil 6-dekabrdagi "Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashi sayloviga doir saylov byulletini namunasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibda amalga oshirilsin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin.

5. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish viloyat saylov komissiyasi raisi o'rinbosari N.Ro'ziyev zimmasiga yuklatilsin.

**Qashqadaryo viloyat  
saylov komissiyasi raisi**



**O'.Ostanov**